

Chingiz Aytmatovning

Muallif: Termiz davlat universiteti

Ingliz filologiyasi fakulteti talabasi

Choriyeva Kumushoy

Ilmiy rahbar: O'zbek adabiyoti

kafedrasi o'qituvchisi

Husniddin Suvonov

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Chingiz Aytmatovning hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar mavjud. Maqolada adibning "Sarvqomat dilbarim" asari tahlili keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *qirg'iz, pabeda, Asal, Ilyos, Xadicha, Samad, baxt.*

Chingiz To'raqulovich Aytmatov XX asr qirg'iz adabiyotining eng iste'dodli va jahonga tanilgan yirik namoyandalaridan biri bo'lib, u 1928 yil 12 dekabrda Qirg'izistonning Talas vodiysidagi Shakar ovulida tug'ilgan. Bobosi Aytmat og'a ajoyib qo'buzchi, otasi To'raqul Aytmatov davlat va jamoat arbobi, onasi Naima opa o'qimishli, oqila ayol edi. Chingiz dastlab rus maktabida, keyin qirg'iz maktabida o'qidi, qishloq sho'rosida kotib, soliq yig'uvchi, brigada hisobchisi bo'lib ishladi. U 1948 yilda Jambul zooveterinariya texnikumini, 1953 yili Qirg'iziston qishloq xo'jalik institutini tamomlagan. 1956 - 1958 yillarda Moskvada Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi Oliy adabiyotchilar kursida tahsil olgan. Chingiz Aytmatov bolaligidanoq badiiy adabiyotga ulkan mehr qo'ygan bo'lib, nasriy asarlar yaratish bilan shug'ullangan.

Adib o'z asarlari qirg'iz xalqining hayoti, voqealari, turmush tarzi ochiq oydin yoritib berilgan. Uning "Jamila" qissasi 40 dan ortiq tillarga tarjima qilingan. Uning bizga ma'lum va mashhur asarlari "Oqkema", "Jamila", "Sarvqomat dilbarim", "Alvido Gulsari" kabi bir qancha qissalari mavjud. Uning "Asrga tatigulik kun", "Qiyomat", "Kasandra tamg'asi" kabi bir qancha

romanlari yetib kelgan. Uning asarlari ichida menga eng yoqqan va ta'sirlantirgan asar "Sarvqomat dilbarim" asarini. Adibning bu asarda Ilyos, Asal, Xadicha, Jontoy kabi obrazlarning òziga xos fe'l -atvorini hozirgi kunda zamondoshlarimizning qaysidir birlarida takrorlanadi. Asarning asosiy qahramoni bu - Ilyos bilan Asal. Bu asarda i tom ma'noda hayotiy -maishiy haqiqat va muammolar tasvirlangan. Asar haydovchi hikoyasidan boshlanadi. Jurnalistni Òsh viloyatiga xizmat safariga yuborishadi va avtostansiyaga kelganda biroz avvalroq barcha avtobuslar ketib qolgan bòladi. Shunda boshqa oddiy yuk tashuvchi "Pabeda" kelib qoladi shu bilan ketmoqchi bo'ladi lekin afsuski, haydovchi norozilik bildirib ketib qoladi. Asar shu tarzda boshlanadi. Asarda Ilyos bilan Asalning uchrashib qolishi kutilmaganda sodir boladi. Ilyosning mashinasi buzilib qoladi. Hammasi shundan boshlanadi. Ular qochib ketadi. Ilyosning eng yaqin do'sti Jonturning uyida yashaydi. Samad ismli farzand ko'radi. Ammo oxirigacha birga bo'lolmaydi. Xalq tilida aytilganidek to'g'ri yurgan insonni to'g'ri yo'lga solishdan ko'ra yomon yo'lga boshlash osonroq. Aynan shunday o'rinlarni ham ko'rish mumkin. Bunday voqealar Xadicha obrazida uchraydi. Chunki Xadicha Ilyosni sevardi ammo Ilyos esa Asalni. Asarning eng ta'sir qiladigan o'rni Ilyos Xadicha bilan ketishidir. Bularni o'qiganimdan keyin bu asar haqida shunday xulosaga keldim. Asar sadoqatlar xiyonatlarga sotilgan asardir. Yana bu asarda mehr sevgidan ko'ra ulug'lagani. Asarda qirg'iz xalqiga xos urf-odatlar, umuminsoniy tuyg'ular, qiyinchiliklar ortidan albatta baxtli kunlar kelishi ochiq yoritilib berilgan. Boytemir obrazida Boytemir shuncha qiyinchiliklarga uchraydi, ammo yengilmaydi oxir oqibat uni ham baxt chetlab o'tmaydi. Kutilmaganda kelgan baxt ya'ni Asal tufayli Boytemir baxtni qarshi oladi. Ilyos bundan umidsizlikka tushmaydi. Uning kelajakka, hayotga muhabbati so'nmaydi. U ham bir kun kelib baxtli bo'ladi. Asar shu tarzda yakunlanadi. Bu asarni o'qir ekansiz o'tkir qalam sohibi, qirg'iz xalqining yetuk namoyandasi Chingiz aytmatovning badiiy mahoratini ko'rishingiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chingiz Aytmatov "Sarvqomat dilbarim " Toshkent. 2021
2. Xurshid Davron kutubxonasi
3. Tafakkur.net sayti